Gov kaptar Columba palumbus l. ning uyalash biologiyasi
Nesting biology of the common wood pigeon (Columba palumbus l.)
Biologiya gnezdovaniya vyaxirya (Columba palumbus l.)

Esanova Saida Ravshan qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Anotatsiya. Maqola gov kaptar (Columba palumbus) ning Samarqand viloyatidagi uyalash biologiyasiga bag‘ishlangan. Tur tog‘ va shahar biotoplarida uya quradi, asosan zarang, qayrag‘och va akatsiyada, o‘rtacha 4,4 m balandlikda. Yiliga 2 ta tuxum qo‘yadi, inkubatsiya 17–18 kun, polaponlar 20–21 kunda uchib ketadi. Oziqi – o‘simlik urug‘lari va mevalar.

Abstract. The article studies the nesting biology of the Common Wood Pigeon (Columba palumbus) in Samarkand region. The species nests in mountainous and urban habitats, mainly on maple, elm, and acacia at an average height of 4.4 m. It lays 2 eggs early; incubation lasts 17–18 days, fledging occurs at 20–21 days. Diet consists of seeds and berries.

Аннотатсия:Статя посвящена биологии гнездования вяхиря (Солумба палумбус) в Самаркандской области. Вид гнездится в горных и городских биотопах, преимущественно на клёне, вязе и акатсии на средней высоте 4,4 м. Откладывает 2 яйса в год, инкубатсия длится 17–18 суток, птенсы покидают гнездо на 20-21 ден. Питание -семена растений и ягоды.

Kalit so‘zlar: gov kaptar, Columba palumbus, uyalash biologiyasi, Samarqand viloyati, tuxum inkubatsiyasi, polapon rivojlanishi

Keywords: Common Wood Pigeon, Columba palumbus, nesting biology, Samarkand region, egg incubation, chick development

Ключевые слова: Вяхир, Солумба палумбус, биология гнездования, Самаркандская област, инкубатсия яис, развитие птенсов

KIRISH

Hozirgi kunda antropogen biosenozlarda qulay sharoitlarning bo‘lishi bu hududlarda ham o‘rmon va daraxtzorlar, tog‘ va tog‘oldi qushlari tarqalib, bunday yerlarda uyalash davrini muvaffaqiyatli o‘tkazishlari kuzatilmoqda. Ushbu maqola gov kaptar - Columba palumbus L. ning Samarqand viloyati turli hududlari va biotoplarida tarqalishi, soni, ko‘payishi, katta yoshdagi qushlar va polaponlarning

uya davridan keyingi hayoti hamda ularning inson hayoti va tabiatdagi ahamiyatini aniqlashga bag'ishlangan.

Ular o'rtacha kattalikdagi (400-600 g) qush bo'lib, O'zbekistonda eng yirik kaptar - gov kaptardir. O'lchami jihatidan ko'k kaptar va xonaki kaptarlardan ancha yirik. Qanotini yozganida 750 mmga boradi. Boshi kichkina, bo'yni boshqa kaptarlardan uzunroq, tumshug'i nisbatan ingichka, burun teshiklari tor, tirqishsimon bo'ladi. Yosh qushlar qo'ng'irroq xira tusda bo'ladi. Bo'ynining ikki tomonida va qanotlarining qayrilgan joyida oq patlarining bo'lishi bilan boshqa kaptarlardan farq qiladi. Patlarining umumiy rangi ko'kimtir, boshi, dumining ustki va pastki qoplag'ich patlari kulrang, oyoqlari kalta, qizil rangda bo'ladi. Gov kaptar serharakat emas, doim xarakterli «kuuu-kuuu-kuuu-» degan tovush chiqarib turadi. Gov kaptar ko'proq daraxtda yashaydigan qush bo'lib, zarur paytlardagina yerga qo'nadi. Jinsiy dimorfizm odatda tana o'lchamlarida ifodalangan, erkaklari birmuncha kattaroq, bir qadar ochiqroq rangda bo'ladi.

O'zbekistonda gov kaptarning *Columba palumbus casiotis* kenja turi uchraydi. Uning tarqalish areali Yevropa, Afrikaning shimoliy qismi va G'arbiy Osiyoni o'z ichiga oladi. O'rta Osiyoda gov kaptar faqat tog'li hududlarda tarqalgan. Bu yerda u tog' o'rmonlarida, archazorlarda uya quradi.

O'zbekistonda gov kaptar faqat o'rmon bilan qoplangan tog' tizmalarida uya quradi. Chotqol tog' tizmasida gov kaptar Ugam vodiysi (Zarudniy, 1923), Pskem daryosi vodiylari (Korelov, 1956), Chirchiq daryosiga quyiluvchi soylarning yuqori qismida (Jeleznyakov, 1950, 1958) odatdagi tur hisoblanadi.

Adabiyotlarda gov kaptarning bahorgi uchib kelishi va kuzgi uchib ketish muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlar juda kam. N.A.Zarudniy (1923) uchib o'tayotgan qushlarni Parkent atroflarida 24 aprelda kuzatgan. Toshkent atroflarida bitta gov kaptar 20 martda uchratilgan. Ugam va Pskem vodiylarida 20 apreldayoq gov kaptarlar allaqachon uyalash joylarini egallagan (Korelov, 1956). Zarafshon vodiysida uchib o'tayotgan qushlar 20 aprelgacha kuzatilgan (Bogdanov, 1956). Toshkent shahri atroflarida qishlashga uchib ketayotgan gov kaptarlar 1 oktyabrda (Zarudniy, 1923) 13 sentyabrda (Matyakubov, 1984) tutilgan hamda D.Yu.Kashkarov va R.N.Meklenbursevlar tomonidan 8, 16 sentyabrda va 21 oktyabrda kuzatilgan. Pskem vodiysida M.N.Korelov (1956) gov kaptarni oxirgi marta 20 sentyabrda uchratgan.

Gov kaptarning tipik uya qurish joylari daraxtzorlar hisoblanadi. Lekin u uya qurish uchun har qanday daraxtlarni ham tanlayvermaydi. Gov kaptarlar tekisliklardagi daryolar bo'yidagi to'qayzorlarda uya qurmaydi. M.N.Korelovning (1956) ma'lumotga ko'ra u tog' daryolari qayiridagi o'rmonlarda uchramaydi. Bu yerda gov kaptarlar yuqori qatlamini Yunon yong'oqlari hosil qiluvchi o'rmonlarda uya quradi. S.K.Dalning (1937) ma'lumotiga ko'ra gov kaptar Zarafshon vodiysining g'arbiy

qismidagi Yunon yong‘og‘i, akatsiya va aylantdan iborat sun’iy o‘rmonlarda yashaydi. Hisor tog‘ tizmasida bu qush zarang, qoraqat aralashib o‘sadigan archazorlarda uchraydi. Xuddi shu yerda ularning uya qurishi aholi yashaydigan punktlar atroflarida ham kuzatilgan.

Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra «Yetti uyli soy» qishlog‘ida topilgan 7 ta uyadan 3 tasi zarang daraxtida (42,9%), 2 tasi qayrag‘och daraxtida (28,5%), 1 tasi gledichiyada (14,3%) va 1 tasi akatsiyada (14,3%) joylashgan edi. Uya materiali shu atrofdagi daraxtlarning kichik shoxchalaridan iborat bo‘ladi. Uya juda ehtiyotsizlik bilan qurilgan bo‘lib uning diametri o‘rtacha 20,3 sm; uyaning balandligi 4,3 sm; uya lotogining chuqurligi 1,5 sm; uyaning yerdan balandligi 4,4 m ni tashkil etadi (1-jadval).

1-Jadval

Gov kaptar uyalarining o‘lchamlari

Uyaning raqami	Uyaning diametri	Uyaning balandligi	Uya lotogining chuqurligi	Uyaning yerdan balandligi	Uya joylashgan daraxt turi
1.	19	5	1	3,5	Zarang
2.	21	5	2	4	Zarang
3.	21	4	1,5	5	Zarang
4.	25	3	2	3,5	Qayrag‘och
5.	17	5	2	3	Qayrag‘och
6.	19	4	1	7	Gledichiya
7.	20	4	1	5	Akatsiya
O‘rtacha	**20,3**	**4,3**	**1,5**	**4,4**	

Bahorda uchib kelgandan so‘ng ular tezda uya qurishga kirishadi. Lekin ba’zan hali juftlashib ulgurmagan galalar may oyining boshlarida ham uchrab turadi, bu vaqtda ko‘pchilik qushlar allaqachon tuxum bosishga kirishgan bo‘ladi. Gov kaptarlarning juftlashish va uya qurish vaqtida erkak qushning g‘urillashini kun davomida, ayniqsa ertalab va kechki paytlarda tez-tez eshitib turish mumkin (Meklenbursev, 1990).

Barcha kaptarlar singari uya qurishda ikkala qush ham ishtirok etadi. Uyalarining yerdan balandligi 2-4 m bo‘lib, uya daraxtlar asosiy poyasining ayrisi va yon shoxlarida joylashadi. Uyasi betartib joylashgan shoxchalar uyumi ko‘rinishida bo‘lib, uya lotogi chuqur emas. Uya materiallari shunchalik siyrak qo‘yiladiki, pastdan turib uyaning

ichki qismini ko‘rish mumkin. Uyada hech qanday yumshoq to‘shaklar bo‘lmaydi (Zaxidov, Meklenbursev, 1969; Meklenbursev, 1990).

Uya tayyor bo‘lgach urg‘ochi qush tuxum qo‘yishga kirishadi. T.Z.Zoxidov va R.N.Meklenbursevlarning (1969) ma’lumotlariga ko‘ra tuxumlarining rangi oq, uzunligi 37 mm dan 44 mm gacha, eni 26 mm dan 35 mm gacha keladi.

Biz tomonimizdan topilgan uyalarning hammasida 2 tadan tuxumlar borligi aniqlandi. Tuxumlarning o‘rtacha (n=14) uzunligi 33,2 mm; eni 29,5 mm; og‘irligi 16,5 g ni tashkil etadi.

Tuxumlarini ikkala qush ham bosib yotadi. Lekin bu jarayonda urg‘ochi qushning ishtiroki ko‘proq bo‘ladi. Inkubatsiya davri 17-18 kun davom etadi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra tuxumlarini asosan urg‘ochi qush bosib yotadi, erkagi urg‘ochisini juda kam vaqt davomida almashtirib turadi. Tuxum bosish jadalligini kunlik kuzatish shuni ko‘rsatdiki, kun davomida urg‘ochi qush tuxumlarini kuzatilgan vaqtning o‘rtacha 55,4% i davomida, erkagi esa 12,8% i davomida bosib yotadi. Urg‘ochi qush tuxum bosib yotgan vaqtda erkak qush ko‘pincha uya atrofida o‘tiradi.

Tuxumdan endigina ochib chiqqan polaponlar juda zaif, nimjon, kamharakat bo’ladi. Ko’zi va eshitish teshiklari yopiq, terisi yupqa, quruq, siyrak embrional pat bilan qoplangan, to’q qo’ng’ir rangda, burishgan bo’ladi, bu vaqtda ularning terisi kulrang-sariqroq bo’ladi, 3-4 kundan keyin esa terisi qo’ng’ir rangga o’tadi. Uch kunlik polapon boshida, ko’zlarining ustida, ensa qismida, ba’zan yelkalarida, umurtqa bo’ylab, sonlarida to’q kulrang tusdagi pigment bo’ladi

Xulosa Gov kaptar (Columba palumbus) Samarqand viloyatida, xususan Urgut tumanidagi tog‘li hududlarda va shahar yashil zonalarda uya quruvchi kelib-ketuvchi tur hisoblanadi. U asosan zarang, qayrag‘och, gledichiya va akatsiyada 4,4 m balandlikda sodda uya quradi, yiliga 2 ta oq tuxum qo‘yib, 17–18 kun bosadi. Polaponlar 20–21 kunda uyani tark etadi. Oziqi faqat o‘simlik urug‘i va mevalardan iborat

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Bogdanov O.P. Fauna Uzbekskoy SSR. – Tashkent, 1956. – T.2, Ptisiy. – Ch.II. – S. 32-122.

[2] Dal S.K. K ekologii nazemniyx pozvonochniyx Zeravshanskoy doliniy// Trudiy UzGU. – Samarkand, 1937. – T.10. – S.165-186.

[3] Jeleznyakov D.F. Materialiy k ornitofaune Chirchik-Angrenskogo vodorazdela // Trudiy SAGU. – Tashkent, 1950. – Viyp. 13. – S.25-51.

[4] Jeleznyakov D.F., Kolesnikov I.I. Fauna pozvonochniyx Gorno-lesnogo zapovednika // Trudiy Gorno-lesnogo zapovednika. – Tashkent, 1958. – Viyp.1. – S.94-117.

[5] Korelov M.N. Materialiy k aviafaune xrebta Ketmen (Tyan-Shan) // Trudiy In-ta zool. AN Kaz SSR, 1956. – T. 6. – S. 109-157.

[6] Matyakubov S.D. Ptisiy drevesno-kustarnikoviyx nasajdeniy Tashkentskogo oazisa. – Tashkent, 1984. – S. 1-168.

[7] Meklenbursev R.N. Semeystvo Golubiniye // Ptisiy Uzbekistana. – Tashkent, 1990. – T.2. – S. 185-188.

[8]Zarudniy N.A. Zametki o vyaxire (Palumbus) // Izvestiya Turk. otd. russk. geogr. ob-va, 1923. – T.16. – S.48-51.

[9] Zaxidov T.Z., Meklenbursev R.N. Priroda i jivotniy mir Sredney Azii. – Toshkent, 1969. – T. I. – S. 264-265.

Mualliflar haqida ma’lumot: S.R.Esanova Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti talabasi , e-mail :saidaesanova3010@gmail.com telefon raqami:+998950275172